

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«KELISHILDI»**  
Oliy va o‘rta maxsus  
ta‘lim vazirligi



«    »    2020-y.

«    »    2020-y.

**5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta‘lim yo‘nalishi  
negizidagi:**

5A114101 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus  
(ixtisoslik) fanlaridan**

**DASTUR**

Toshkent – 2020-y.

## **Annotatsiya**

Dastur 5A114101 – Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili) bo'yicha magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishining 2016/2017 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

### **Tuzuvchilar:**

A.M.Mamadaliyev– TDPU Chet tillar fakulteti dekani, p.f.n. dotsent

K.T.Mo'minov – TDPU Ingliz tili nazariyasi va o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri

Dastur Chet tillar fakultetining 2020 yil \_\_ iyundagi № \_\_- sonli Kengashi yig'ilishida muxokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## **KIRISH**

Mazkur dastur 2020-2021 o‘quv yilida 5A114101 – Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga kiruvchilar uchun kirish sinovlari dasturi, savolnomalari va baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan. Dastur, savolnoma va mezonlari oliy ta‘limning 5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta‘lim yo‘nalishi Davlat ta‘lim standartiga asoslanib tuzildi.

### **CHET TIL O‘QITISH METODIKASI fani bo‘yicha:**

Chet til o‘qitish metodikasining asosiy rivojlanish bosqichlari. Mamlakatimiz va chet el metodikasi rivojlanishining qisqacha tarixiy sharhi. Chet tilni o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Chet til o‘qitishning umumta‘lim va maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi maqsadlari, mazmuni, metodlari va vositalari. Mashq. Mashqlar tasnifi. Mashqlar bajarish izchilligi. Nutq ko‘nikma va malakalarini shakllantirish bo‘yicha mashqlarning asosiy turlari va toifalari. Nutq faoliyati turlari – gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuvni o‘rgatish bo‘yicha mashqlarning asosiy turlari va toifalari, nutq ko‘nikma va malakalarining o‘zaro bog‘liqlik masalasi. Chet tilda nutq faoliyati turlarini o‘rgatish. Leksika, grammatika va talaffuzni o‘rgatish. Nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv)da til materialini (talaffuz, grammatika, leksika)dan yaxlit foydalanish. Chet til o‘qitish jarayonini tashkil etish: chet tilda mashg‘ulot turlari, ularni rejalashtirish. Chet tillar bo‘yicha darsdan tashqari ishlar. Turli oliy o‘quv yurtlarida chet tillarni o‘qitish.

### **CHET TIL NAZARIY ASPEKTLARI (MODUL) fani bo‘yicha:**

Tilshunoslikka kirish: til haqidagi fan: tilshunoslikning boshqa tabiiy, umumiy fanlar bilan aloqasi. Tilning funksiyasi. Til va jamiyat, til va millat. Til sistemasi va strukturasi. Tilning kelib chiqish nazariyasi. Yozuvni rivojlantirishdagi asosiy bosqichlar va yozuv turlari. Alfavit, alfavitning tuzilish prinsiplari, qiyosiy-tarixiy metod haqida tushuncha. Dunyo tillarining tasnifi. Ingliz tilining dunyo tillarining genealogik va klassifikatsiyasidagi o‘rni.

Umumiy tilshunoslik: tilshunoslik asoslari va umumiy tilshunoslik. Tilshunoslik tarixi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va uning oqimlari. Tilshunoslikdagi zamonaviy maktab va oqimlar, ularning nazariy asoslari. Til tizimi va strukturasi. Til va axborot, til texnologiyalari, til o‘rganish metodlari.

### **QIYOSIY TIPOLOGIYA fani bo‘yicha:**

Ingliz va ona tili qiyosiy tipologiyasi: qiyosiy tipologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Qiyosiy tipologiya fanining asosiy tushunchalari, qiyosiy tipologiya fanining tarixi. Qiyosiy tipologiya fanining asosiy tadqiqot metodlari va prinsiplari. Qiyosiy tipologiya fanining boshqa filologik fanlar bilan aloqasi. Qarindosh va turli til oilalariga mansub tillarning tipologik xususiyatlari. Lingvistik tipologiya. Grammatik tipologiya. Leksik tipologiya. Stilistik tipologiya. Fonologik tipologiya. Tipologiya va so‘z yasash tizimi. Tarixiy tipologiya. Matn tipologiyasi, qiyosiy tipologiya va lingvodidaktika. Qiyosiy tipologiya va tarjimashunoslik. Qiyosiy tipologiya va mamlakatshunoslik. Qiyosiy tipologiya va madaniyatlararo muloqot muammolari.

## **TILI O'RGANILAYOTGAN MAMLAKAT ADABIYOTI TARIXI fani bo'yicha:**

Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti tarixi fanining maqsadi va predmeti. German tillari haqidagi umumiy ma'lumot. German qabilalarining yozuvlari. German tillarining fonetik xususiyatlari. Grimm qonuni. Unli va undoshlar. German tillarining asosiy grammatik xususiyatlari. Ot, sifat, fe'llarning turlari. Ingliz tili tarixining davrlari. Qadimgi davr ingliz tili. Ingliz tilining paydo bo'lishi. Rimliklar va anglosaksonlar istilosi. German davlatlarining tashkil topishi. Qadimgi ingliz tilining fonetik tuzilishi. Unlilar. Sinish. Diftonglashuv. Ablaut hodisasi. Qadimgi davr ingliz tili morfologiyasi va sintaksisi. Predloglar. So'z yasash usullari. O'rta davr ingliz tili. Fonetik, grammatik tuzilish. London dialekti. O'rta davrda artikllarning paydo bo'lishi. Aniq va noaniq artikllar. O'rta davr lug'at tarkibi va undagi o'zgarishlar. Yangi davr ingliz tili fonetik, grammatik tuzilishi. Hozirgi ingliz tiliga asos bo'ladigan sabablar. Ingliz tilining tarqalishi. Yangi davr ingliz tili morfologiyasi. Sintaksis. Yangi davr ingliz tili so'z tuzilishining o'zgarishi. Lug'at tarkibi. Yangi davr ingliz tilidagi tarixiy hodisalar. Etimologik va yangi davr leksikasiga oid o'zgarishlar. Ingliz tili milliy variantlarining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari.

Ingliz adabiyoti tarixi. Angliya o'rta asr adabiyoti. «Beovulf» xalq qahramoni eposi. Ritsarlik romani. Jefri Choser–Angliya poeziyasining otasi. «Kentrberi hikoyalari». Angliyada uyg'onish davri. U. Shekspirning dastlabki ijodiy davri: komediyalari, «Romeo va Julietta» tragediyasi. U. Shekspirning «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir» tragediyalari. XVII asr adabiyoti. Angliya burjua revolyusiyasi va adabiyoti. Angliyada ma'rifatchilik. D.Defo, J.Svift, H.Fildingning ma'rifatparvarlik ruhidagi romanlari. Ingliz adabiyotida romantizm. Romantizmning asosiy oqimlari. J.G.Bayron ijodi. «Chayld Garoldning ziyorati», «Sharq dostonlari», «Don Juan» asarlari. Shotlandiya adabiyoti va uning rivojlanish xususiyati. R.Byorn, V.Skottning tarixiy konsepsiyasi. «Ayvengo» va «Puritan» romanlari. Amerika adabiyoti, romantizm va uning xususiyati, V.Irving va J.F.Kuper. XIX asr tanqidiy realizm adabiyoti. Ch.Dikkens «Oliver Tvist» asari. 40-50 yillar romanlari. Ch.Dikkens romanlari. U.Tekkerey ijodi. «Shuhratparastlik g'ul'g'ulasi». Sh.Brontyo va E.Brontyo romanlari, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Angliya adabiyoti. Realizm (T.Hardi). Neoromantizm (R.Stivenson, R.Kipling). Dekadentlik (O.Uayld). AQSh adabiyotida abolitsionizm. G.Bicher-Stouning ijodi. «Tom tog'aning kulbasi» asari. Mark Tven ijodi va romanlari. J.London ijodi, «Martin Iden» romani. T.Drayzerning dastlabki romanlari. «Baxtiqaro Kerri» romani. T.Drayzerning «Amerika fojeasi» romani. B.Shou ijodi. «Yoqimsiz pesalar». G.Uelsning realistik va fantastik asarlari. Jon Golsuorsi ijodi. «Forsaytlar haqida epopeya». Chet el adabiyotida yo'qolgan avlod. Richard Oldington «Qahramonning o'limi» asari. E.Heminguey ijodi. E.Hemingueyning «Alvido qurol» romani. Hozirgi davr Angliya adabiyoti. Urushdan keyingi davr Angliya romantizmining rivojlanish yo'llari. U.Golding va A.Merdok ijodi. J.Osborn ijodi. J.Osborn dramaturgiyasi. «Darg'azab yoshlar» dramaturgiyasi. 1940-1950 yillardagi Amerika adabiyotining rivojlanish tendensiyalari. J.Selindjer ijodi. 1960 – hozirgi davr AQSh adabiyoti. D.Apdayk ijodi.

## **TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI fani bo'yicha:**

Tarjima nazariyasining predmeti. Tarjimaning umumiy va maxsus nazariyasi. Tarjima turlari. Tarjima–madaniyatlararo muloqot sifatida. Tarjimaning umumlingvistik nazariyasi. Tarjima birligi. Kontekst tushunchasi. Tarjima turlari. Badiiy adabiyotda tarjima normasi tushunchasi. Soʻz tarjimasining asosiy imkoniyatlari. Aslyat va tarjimada soʻz birikuvi. Tarjimada soʻzlarning birikish normasi. Yasama soʻzlar tarjimasini. Neologizmlar, arxaizmlar, istorizmlar, okkazonalizmlar. Qoʻshma otlar va sifatlar tarjimasini. Koʻp maʼnoli soʻzlar tarjimasini. Tarjimada sinonimlar. Xos soʻz (realiy)lar tarjimasini. Frazologik vositalar tarjimasini. Tarjimada leksik variant tushunchasi. Grammatik kategoriyalar tarjimasiga yondashish prinsiplari. Aslyat tili va tarjima tili oʻrtasidagi grammatik tafovutlar. Tarjimada grammatik variantni tanlash. Shaklan nomuqobil elementlar funksiyasining tarjimada berilishi. Tarjima transformatsiyalari. Gazeta matnlarining tarjima xususiyatlari. Maʼruza nutqining tarjima xususiyatlari. Maxsus ilmiy adabiyot tarjimasini. Badiiy adabiyot tarjimasini xususiyatlari. Badiiy matnlar tarjimasini stilistikasi. Qiyosiy stilistika–tarjima nazariyasining muhim boʻlimi sifatida. Funksional uslublar va matnlar tarjimasini.

## **MADANIYATLARARO MULOQOTNI OʻRGATISH fani bo'yicha:**

Qadimiy tarixda Buyuk Britaniya (Britaniyalik qadimiy keltlar, ularning ijtimoiy tuzumi, madaniyati). Rimliklar, anglosaksonlar, skandinavialiklar va normandlarning Britaniyani zabt etishi va Britaniyaning taraqqiyotiga taʼsiri. Oʻrta asrlar davrida Buyuk Britaniya (feodalizmning rivojlanishi, parlamentning paydo boʻlishi, Uolt Trayler qoʻzgʻoloni, ingliz milliy tilining rivojlanishi). XV-XVI asrlarda Buyuk Britaniya (Qizil va oq Atirgul urushi, Tyudorlar sulolasining absolyutizmi, Uygʻonish davri madaniyati). XVII-XVIII asrlarda Buyuk Britaniya (Styuartlar sulolasi va ingliz burjuaziyasi inqilobi). Mustamlakachilik imperiyasining tashkil boʻlishi va Gannoverlar sulolasi, ingliz maʼrifatchiligi. XIX-XX asrlarda Buyuk Britaniya (Napoleon urushlari davrida dunyoga hukmronlik qilish uchun inglizlar va fransuzlar oʻrtasidagi kurash, chartistlar harakati, chartistlar magʻlubiyati va uning sabablari, Britaniya mustamlakachilik imperializmining shakllanishi). Birinchi va ikkinchi jahon urushlari davrida Buyuk Britaniya. XIX-XX asrlarda Buyuk Britaniya madaniyati. Buyuk Britaniya geografiyasi (tabiiy sharoiti, iqlimi, geografik oʻrni, asosiy tabiiy-geografik hududlari, aholisi). Buyuk Britaniya iqtisodiyotining umumiy tavsifi (sanoatning asosiy tarmoqlari, qishloq xoʻjaligi; iqtisodiy hududlar). Buyuk Britaniyaning davlat tuzumi va siyosiy partiyalar (Angliya konstitutsiyasining xususiyatlari; saylov tizimi; ikki palatali Angliya parlamenti; Buyuk Britaniya siyosiy partiyalarining tarkibi va faoliyat dasturlari). Boshqa inglizabon mamlakatlarning geografiyasi, tarixi va madaniyati (AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya). Geografik oʻrni; tabiiy resurslari, aholi tarkibi, iqtisodiy rivojlanishi, davlat tuzumi, siyosiy partiyalar). Madaniyati (adabiyot, tasviriy sanʼat, musiqa, kino, teatr).

## **FILOLOGIK TADQIQOT ASOSLARI fani bo'yicha:**

Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni ragʻbatlantirish, ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligi, ilmiy manbaalarni tahlil qilish metodlari: ilmiy bilish metodlari;

induksiya, deduksiya, analogiya; pedagogik kompetentlik, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'qitish shakllari, metodlari hamda vositalari; ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviylikini ta'minlashni bilish, mashg'ulot olib boriladigan fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va ob'ekti, fanning ishlab chiqarishdagi o'rni va ahamiyati; fan taraqqiyotining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog'liqligi; foydalaniladigan asosiy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va elektron adabiyotlar; fan mazmunini ishlab chiqishda o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan gorizontaal va vertikal uzviylikning ta'minlanishini baholash; fanning istiqboldagi taraqqiy etishi muammolari va ularning echimlari haqida bilim va layoqatga egalik.

## **TIL ASPEKTLARINI O'RGATISH AMALIYOTI KOMPETENSIYASI** **fani bo'yicha:**

Tanishish. Salomlashish. O'zini tanishtirish. Suhbatdoshining kimligini so'rash. Hol-ahvol so'rash. Iltimos qilish. Kechirim so'rash. Xayrlashish. Minnatdorchilik bildirish. Mamnunlik, hayratlanish, rad etishni ifodalash.

Oila. Oilaa 'zolari (tarkibi). Qarindoshlik munosabatlari. Oila a'zolari yoshlari. Tarjimai hol. Kasb. Mehnat faoliyati. Inson qiyofasi va ichki kechinmalari.

Yashash sharoiti. Xonadon (hovli, xonalar, dala hovlisi). Ijara (ijaraga qo'yish uy olish). Talabalar uyi.

Ish kuni. Kundalik yumushlar. Talabaning kun tartibi. Nonushta. Tushlik. Kechki ovqatlanish. Mashg'ulotlar. Darsga tayyorgarlik.

Ovqatlanish. Milliy taomlar. Ichimliklar. Oshxona (xonadonda va umumiy ovqatlanish muassasalari). Ovqatlanish tarzi .

Xordiq chiqarish. Dam olish turlari. Madaniy xordiq (teatr, kino, stadion, konsert, diskoteka, muzey, kutubxona, bog'larga borish). Sayr qilish. Sayohat. Bo'sh vaqtlardagi mashg'ulotlar (sport, mutolaa , suhbat, xobbi va b.).

Vaqt.Soat. Hafta kunlari. Oylar. Sana. Yil fasllari.

Mustaqil O'zbekiston. Milliy ramzlar: ramzi, bayrog'i, madhiyasi. Mustaqillik kuni. Konstitutsiya. Davlat tizimi.

Mehmondorchilik, mezbonlik. Mehmonga taklif qilish. Mehmon bo'lish. Mezbonlik qilish. Dasturxon atrofida o'zini tutish.

Bayram va tantanalar. Milliy bayramlar (O'zbekiston va inglizabon mamlakatlarda bayramlar). Tantanali marosimlar (yubiley, tug'ilgan kun, to'y-tomoshalar, uchrashuvlar va h.k.). Yig'ilishlar o'tkazish.

Yoshlar hayoti. Qiziqishlar. Do'stlik. Hurmat. Sevgi. Kelajak haqida o'ylar (Istiqbol rejalari). Kattalarga va nogironlarga munosabat. O'zaro munosabat. Erkak va ayol munosabatlari. Avlod-ajdodlar munosabatlari (vorislik). Barkamol avlod orzusi.

Kiyim-bosh.Milliy kiyimlar. Zamonaviy kiyinish. Liboslar ko'rigi (tanlovi). Kiyim do'konlari.

Shahar va qishloq. Diqqatga sazovor joylar. O'ziga xos udumlar. Transport va kommunikatsiya. Maishiy xizmat. Ko'ngilochar manzillar. Ta'lim muassasalari. Korxonalar va tashkilotlar.

Buyuk allomalar. Turli sohada nom qoldirgan shaxslar. Hozirgi zamon atoqli kishilari.

Til o'rganish. Til bilishning ahamiyati. Ko'p tillilik xosiyati. O'zga tillarni o'rganishga qiziqish. Chet tillarni puxta egallash. Ta'limning texnik vositalari. Chet til ta'limiga oid me'yoriy hujjatlar.

Inglizabon mamlakatlar. Muxtasar tarixi. Geografik sharoiti. Aholisi. Mentalitet. Diqqatga sazovor xususiyatlari, joylari, an'analari. Ilm-fan, texnika va texnologiya, adabiyot, san'at, madaniyat, sanoati, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyoti, siyosiy tuzumi, tabiiy boyliklari.

Ta'lim tizimi. Universitet, institut, maktab, bog'cha. Kasb tanlash. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalar. Ilmiy tadqiqot ishlari.

Inglizabon mamlakatlarga borish. Borishga tayyorgarlik ko'rish, viza tizimi. Jo'nash rejalari, etib borish, joylashish. Transport vositalari. Universitetda tahsil olish. Hayot tarziga moslashish. Pochta, bank, savdo tizimi. Yodgorliklar. Realiylar. Kundalik turmush tarzi. Ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televizion). Internet, e'lonlar va reklamalar.

Tabiat. Tabiiy sharoit. Iqlim. Ob-havo. Tabiat quchog'ida dam olish. Tabiat muhofazasi. Oromgohlar va sayrgohlar.

O'qituvchi. Zamonaviy o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar. Ingliz tili o'qituvchisini tayyorlash. Mashhur pedagoglar. Ustoz-shogird tizimi.

Medsina. Inson salomatligi. Tibbiy xizmat. Dorixona. Tez yordam ko'rsatish.

Sport turlari. Ommaviy sport. Sport musobaqalari. Olimpiadalar. Chempionatlar. Mashhur sportsmenlar.

Din. Dinlar (xristian, islom, buddizm va b.). Rasm-rusm. Qadriyatlar (milliy, mahalliy, mintaqaviy, umumbashariy).

## **FOYDALNILGAN ASOSIY DARSLIKLAR, O'QUV QO'LLANMALAR RO'YXATI**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Фармановская Н.И. Речевое общение: коммуникативно-прагматический подход. – М.: Русский язык, 2002
2. Шермухамедов С., Очилдиев А. Маданият ва цивилизация. – Т.: Янги аср авлоди, 1999.
3. Bennett M.J. Basic concepts of intercultural communication. Selected readings. M.G. Edition. – Intercultural press, Inc., 1998.
4. Hall E. The Silent Language. – New York, London, 1990.
5. Hofstede G. Culture's Consequences. – San Francisco: Sage, 1994.
6. Kramsch C. Language and Culture. – Oxford University Press, 2001.
7. Samovar L.A., Porter R.E. Intercultural communication: A Reader. – Belmont, CA: Wadsworth Publishing Co., 1990
8. Scollon R., Scollon S. Intercultural communication: A discourse approach. – Cambridge, MA: Basil Blackwell, 1995.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

9. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: Чет тиллар олий ўқув юртлири (факультетлари) талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 368 б.

10. Сатторов Т.Қ. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т.: , 2003. – 192 б.

11. Д.Тожибоева, А. Йўлдошев. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. – Т.:2009. – 567 б.

12. Жалолов Ж.Ж. Педагогика институтлари дастури чет тиллар (нолисониhtисослар учун). Мухарир проф. Т.: -1994 й.

### **Elektron ta`lim resurslari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)